

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.01.2020.I.20.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

ATAMURATOVA NURZADA BAYRAMOVNA

**RAQAMLI IQTISODIYOTGA O'TISH SHAROITIDA AXBOROT
XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI
(QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI TURIZM SOHASI MISOLIDA)**

08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2023

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in economic sciences

Atamuratova Nurzada Bayramovna

Raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida axborot xizmatlarini rivojlantirish masalalari
(Qoraqalpog'iston Respublikasi turizm sohasi misolida).....3

Атамуратова Нурзада Байрамовна

Задачи развития информационных услуг в условиях перехода к цифровой экономике (на
примере сферы туризма Республики Каракалпакстан).....29

Atamuratova Nurzada Bayramovna

Tasks of development of information services in the context of the transition to a digital
economy (on the example of the Republic of Karakalpakstan in the field of tourism).....57

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....61

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.01.2020.I.20.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

ATAMURATOVA NURZADA BAYRAMOVNA

**RAQAMLI IQTISODIYOTGA O‘TISH SHAROITIDA AXBOROT
XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI
(QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI TURIZM SOHASI MISOLIDA)**

08.00.05 – Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2023

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.PhD/Iqt1656 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.karsu.uz) va «Zionet» Axborot-ta'lim portalida (www.zionet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Adilchayev Rustem Tursinbayevich iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rasmiy opponentlar:	Norchaev Asatillo Norbo'taevich iqtisodiyot fanlari doktori, professor Maxmudova Mohinur Ravshanbekovna iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Yetakchi tashkilot:	Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.01.2020.1.20.06 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil « 09 » *sentyabr* soat 16.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-60-47, faks.: (99861) 223-60-78, e-mail: karsu_info@edu.uz.

Dissertatsiya bilan Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (147 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-60-47, faks.: (99861) 223-60-78, e-mail: karsu_info@edu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil « 19 » *avgust* kuni tarqatildi.

(2023-yil « 19 » *avgust* dagi 36 raqamli reestr bayonnomasi).



J.K. Sauxanov
J.K. Sauxanov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, i.f.d., professor

R.B. Utemuratov
R.B. Utemuratov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, PhD, dotsent

S. Doschanov
S. Doschanov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda globallashuv xalqaro miqyosdagi raqobat jarayonlarining kuchayishi sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tarmog'ida xizmat ko'rsatishning jadval sur'atlarda rivojlanishiga erishilmoqda. Aksariyat tarmoq va sohalarda masofaviy ishlash rejimiga o'tishning kengayishi natijasida ish o'rinlarining qisqarishi bilan bir qatorda, xizmatlar hajmining sezilarli oshishi ro'y bermoqda. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning raqamli texnologiyalarga o'tish jarayoni bilan uzviy bog'liqligi kuchaymoqda. Xususan, Jahon bankining tadqiqotlariga ko'ra, "internet tezligining 10 foizga o'sishi, mamlakat YaIMni 2,2 foizga o'sishiga olib kelishi aniqlangan. Rivojlangan davlatlarda bu ko'rsatkich, 1,21 foizni tashkil etsa, rivojlanayotgan davlatlarda 1,38 foizni tashkil etadi. Demak, internet tezligi 2 barobarga oshadigan bo'lsa, YaIM hajmi ham qariyb 15 foizga oshishiga erishish mumkin"¹. Shu bilan birga, "raqamli iqtisodiyot global miqyosda 11,5 trillion AQSh dollarini tashkil etmoqda, bu global YaIMning 15,5 foiziga teng. 2025-yilga kelib raqamli iqtisodiyot global miqyosda 23 trillion AQSh dollarini yoki global YaIMning 24,3 foizini tashkil etishni prognoz qilinmoqda"². Bundan ko'rinadiki, raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida axborot xizmatlarini rivojlantirishning dolzarbligi tobora oshib bormoqda.

Jahonda pandemiyadan keyingi davrda zamonaviy jamiyat hayotining barcha sohalariga raqamli texnologiyalarning faol kirib borishi yangi dunyo iqtisodiyotining rivojlanayotgan raqamli makonida raqobatbardosh mavqega erishishiga oid ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Iqtisodiyotni raqamlashtirish va raqamli o'zgartirish jarayonlarini tezlashtirish, mazkur o'zgarishlarning analitik, ilmiy va uslubiy rivojlanishini tadqiq etish, uzoq muddatli istiqbolda raqamli iqtisodiyotning mikro, mezo, makro darajalardagi xususiyatlarini ochib berish, ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning rivojlanish vektorini belgilash, raqamli transformatsiya jarayonlarini tadqiq etish va har tomonlama tahlil qilish bu boradagi tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash sharoitida tashqi migratsiya, xalqaro savdo va kapitallar harakati, turizm, xorijiy investitsiyalar, axborot texnologiyalari va tizimlarini jadallik bilan joriy etilishi va rivojlanishi mamlakatning iqtisodiy o'sish sur'atlariga ta'sir etmoqda. Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ochiqlik, xalqaro iqtisodiy-siyosiy aloqalarning rivojlanishi sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash imkoniyatlarini yuzqasa keltirmoqda. Mamlakatda "raqamli iqtisodiyot", "elektron hukumat", "onlayn to'lov", "onlayn xizmatlar", "internet" kabi iboralar hayotning ajralmas bo'lagiga aylandi. Axborot texnologiyalari va tizimlari kundalik hayotning barcha sohalarini qamrab olmoqda.

¹ Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish mamlakatga nima beradi. Nodir Jum'eva, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Қонунчилик палатаси депутаты, иқтисод фанлари доктори, проф. <https://finance.uz/index.php/uz/fuz-menu-biznes-uz/6699-ra-amli-i-tisodiyotni-rivozhlantirish-mamlakatga-nima-beradi>

² Huawei and Oxford Economics (2017), "Digital Spillover: Measuring the True Impact of the Digital Economy" at www.huawei.com/minisite/gci/en/digital-spillover/files/gci_digi-tal_spillover.pdf.

Shu tufayli, Qoraqalpog‘iston Respublikasida raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida axborot xizmatlarini rivojlantirishning nazariy-uslubiy va amaliy jihatlarini bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish dolzarb masala hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son «Raqamli O‘zbekiston - 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2020-yil 28-apreldagi PQ-4699-son “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 18-yanvardagi PQ-2731-son «2017-2021-yillarda Orolbo‘yi mintaqasini rivojlantirish davlat dasturi to‘g‘risida», 2020-yil 11-noyabrdagi PQ-4889-son “2020-2023-yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishi to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining 2020-yil 7-dekabrda 08/1-2190-son “Hududlarni raqamli rivojlantirish darajasini reytingli baholash tartibi to‘g‘risida nizom” hamda soha faoliyatiga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishlari doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Raqamli transformatsiya jarayonlarini, shu jumladan, ularning iqtisodiyotga xizmat ko‘rsatish tendensiyasi bo‘yicha uslubiy va nazariy jihatdan T.Voronina, M.Knell, R.Xiks, D.Yan-e, X.Guven, S.Loebbecke, shuningdek, turizm sohasida axborot xizmatlaridan foydalanish hamda tarmoqqa innovatsion xizmatlarni joriy qilish bo‘yicha Z.Tsiang, R.Xarting, X.Ziis, L.David, Z. Lakner, M. Fekete va boshqalarning fundamental asarlarida o‘z aksini topgan.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish konsepsiyasi va unga o‘tish mexanizmlari hamda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish va uni umuman ijtimoiy-iqtisodiy tizim doirasida, shu jumladan turizm tarmog‘ini raqamlashtirish va tarmoqlashtirish jarayonlarining rivojlanishi bilan bog‘liq tadqiqotlar mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlarining iqtisodchi olimlaridan V.Senin, A.Durovich, V.Aleeva, A.Andreeva², M.Morozov, I.Korabeynikov va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida o‘rganilgan.

O‘zbekiston olimlaridan A.Iminova, A.Qodirov, L.Shibarshova, Sh.Tursunov, A.Aripov, X.Muxitdinov, M.Maxmudov, M.Maxkamova, T.Teshabaev, A.Qaxxorov asarlarida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish hamda raqamli transformatsiyani o‘rganish masalalari yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishning yangi yo‘nalishlari bo‘yicha N.T.Tuxliev, M.Q.Pardaev, I.S.Tuxliev, D.K.Usmanova, A.N.Norchaev, K.Ubaydullaev, T.Doschanov, N.Arabov, shu jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmatlar sohasi va turizmni rivojlantirish yuzasidan N.Aimbetov, S.Salaev, J.Sauxanov,

A.Musagaliev, U.R.Matyoqubov, A.K.Alimov, M.Xalimovalarning ilmiy ishlarida bayon qilingan³.

Ushbu tadqiqotlar muallifning xizmat ko'rsatish sohasida, shuningdek, milliy iqtisodiyotda institutsional va tarkibiy o'zgarishlarni tahlil qilishda mualliflik yondashuvini shakllantirish, raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida axborot xizmatlarini rivojlantirish masalalari hamda axborot xizmatlar institutini shakllantirish bo'yicha amaliy takliflar va tavsiyalar ishlab chiqish uchun nazariy va uslubiy asos bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qoraqalpog' davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq hamda PZ-2017-092718 - «Qoraqalpog'iston Respublikasida ekologik turizmni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish» mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida Qoraqalpog'iston Respublikasida axborot xizmatlarini, xususan turizm sohasini

³ Voronina T. V. et al. Peculiarities of the process of digitalization of economies in the Eurasian Economic Union states //European Research Studies. – 2018. – T. 21. – С. 1021-1033.; Knell M. The digital revolution and digitalized network society //Review of Evolutionary Political Economy. – 2021. – T. 2. – №. 1. – С. 9-25.; Yan-e D. Design of intelligent agriculture management information system based on IoT //2011 Fourth International Conference on Intelligent Computation Technology and Automation. – IEEE, 2011. – T. 1. – С. 1045-1049.; Guven H. Industry 4.0 and marketing 4.0: in perspective of digitalization and E-Commerce //Agile Business Leadership Methods for Industry 4.0. – Emerald Publishing Limited, 2020. Loebbecke C., Picot A. Reflections on societal and business model transformation arising from digitization and big data analytics: A research agenda //The Journal of Strategic Information Systems. – 2015. – T. 24. – №. 3. – С. 149-157.; Xiang Z. From digitization to the age of acceleration: On information technology and tourism //Tourism management perspectives. – 2018. – T. 25. – С. 147-150.; Härting R. C. et al. Potentials of digitization in the tourism industry—empirical results from German experts //International Conference on Business Information Systems. – Springer, Cham, 2017. – С. 165-178.; Thees H. et al. Shaping digitalization among German tourism service providers: Processes and implications //Journal of Tourism, Heritage & Services Marketing (JTHSM). – 2021. – T. 7. – №. 2. – С. 3-15.; Mibalic, T., Sahar, M., Abbas, A. aan Dávid, L.D. 2021. "Mapping a Sustainable and Responsible Tourism Paradigm: A Bibliometric and Citation Network Analysis" *Sustainability* 13, no. 2: 853. <https://doi.org/10.3390/su13020853>; Salamzadeh A. et al. An AHP approach to identify the barriers of sustainable geotourism development in Iran: an economic view //Geoheritage. – 2021. – T. 13. – №. 3. – С. 1-11.; Бухт Р., Хякс Р. Определение, концепция и измерение цифровой экономики // Вестник международных организаций. 2018. Т. 13, № 2. С. 143–172.; Корабейников И.Н., Корабейникова О.А. (2008). Теоретические аспекты эффективности развития регионального рынка информационных услуг. *Экономика региона*(4), 158-166.; Морозов М. А., Морозова Н. С. Концепция цифровой экосистемы индустрии туризма и гостеприимства //Современные проблемы сервиса и туризма. – 2020. – Т. 14. – №. 4. – С. 27-36.; Тухидев Н., Абдуллаева Т. Менеджмент и организация бизнеса в туризме Узбекистана. -Т.: Гос.науч.изд-во «Узбекистон миллий энциклопедияси», 2006. – 386 с.; Усманова Д. Особенности формирования туристского продукта и перспективные направления его развития: Икт.фан.номи. дисс. автореф. –Самарканд: СамИИСИ, 2009. – 25 б.; Norchaev A. "Xalqaro turizmni rivojlantirishning iqtisodiy o'sishiga ta'siri": Iqt.fan.nom.diss.avtoref. –Т.: ТДИУ, 2004 у. -120 б.; Matyakubov U. Ekologik vaziyatni inobatga olib turizm samaradorligini oshirish yo'nalishlari va istiqbollari (Xorazm viloyati misolida): Iqt.fan.nomi. diss. avtoref. –Samarqand, 2011.; Убайдуллаев К., Алымов А. К. Перспективы развития промышленности в Республике Каракалпакстан //Бюллетень науки и практики. – 2020. – Т. 6. – №. 10. – С. 258-265.; Kerimbergenovich A. A. et al. Ecotourism development in the Republic of Karakalpakstan: historical places and protected areas //Journal of Critical Reviews. – 2020. – Т. 7. – №. 12. – С. 1258-1262.; Doschanov T. D., Ataev J. E., SPECIFIC FEATURES OF F. F. MODERN PROBLEMS OF TOURISM AND ECONOMICS; Сауханов Ж. К., Мырзатаев С. М. О НОРМАТИВНОМ КОЭФФИЦИЕНТЕ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ //Экономика и социум. – 2018. – №. 2. – С. 406-411.; Халимова М. Инновационные и инвестиционные механизмы реализации программ экологического развития и укрепления туристического потенциала зоны Приаралья //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 2/5. – С. 126-137.; Арабов Н. У., Зикрияев З. М. Организационно-экономический механизм регулирования рынка труда //Известия вузов. Инвестиции. строительство. недвижимость. – 2013. – №. 1 (4). – С. 23-28.

rivojlantirish bo'yicha ilmiy uslubiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

raqamli iqtisodiyotni shakllantirish va tashkil etishning nazariy asoslarini tadqiq qilish;

raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida axborot xizmatlarining rivojlanishini hozirgi holatini tahlil qilish;

raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda xorij tajribasi tendensiya va istiqbollari aniqlash;

Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida axborot xizmatlarini ko'rsatuvchi platformalarni tadqiq etish;

Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida turistik xizmatlarni rivojlantirish istiqbollari belgilash;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish asosida iste'molchilarga axborot xizmatlarini ko'rsatishning tashkiliy va uslubiy vositalari bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

raqamli axborot platformasi biznes modeli va uning raqamli transformatsiyadagi rolini ko'rsatuvchi jarayonlar bo'yicha istiqbollarni belgilash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Qoraqalpog'iston Respublikasida ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni raqamli o'zgarishi jarayonlarida qatnashuvchi, vositachilik qiluvchi hamda axborot xizmatlarini ko'rsatuvchi davlat va xo'jalik yurituvchi korxonalar, shuningdek turistik tashkilotlar tanlangan.

Tadqiqotning predmeti raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida turizm sohasida axborot xizmatlarini rivojlantirish bilan bog'liq munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, SWOT-tahlil, qiyosiy tahlil, tanlanma kuzatuv, taqqoslash, korrelyatsion va regression tahlil, iqtisodiy-matematik modellashirish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

hududlarni raqamli rivojlantirish darajasini reyting baholash axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, internet va mobil aloqa, ta'lim va kadrlar, dasturiy mahsulot, raqamli iqtisodiyotga oid ma'lumotlar orqali shakllantiriluvchi turli indekslardan foydalanish asosida takomillashtirilgan;

hududlarni raqamli rivojlantirish darajasini reyting baholashda shaharlar va qishloqlar orasidagi raqamli rivojlanishning tafovut darajasi ko'rsatkichidan foydalanish asosida qishloq joylari va olis hududlarda raqamli axborot xizmatlarini kengaytirishni rag'batlantirish taklifi asoslangan;

turistlar uchun mahalliy hududdagi turistik, biznes va infratuzilma obyektlari bo'yicha zarur ma'lumotlarni onlayn rejimda taqdim etishga yo'naltirilgan "Qasimda" elektron platformasi asosida raqamli xizmat ko'rsatishni takomillashtirish taklifi ishlab chiqilgan;

Qoraqalpog'iston Respublikasida turistik xizmatlar sohasi rivojlanishining ko'p omilli ekonometrik modeli asosida 2026-yilga mo'ljallangan turistik xizmatlar hajmining prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida axborot xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha rivojlangan G20 talikka kiruvchi davlatlarning tajribalari o'rganilgan holda ular O'zbekiston Respublikasida, xususan Qoraqalpog'iston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish dinamikasini aniqlashda qo'llanilgan;

Qasimda platformasida Nukus shahridagi xizmat ko'rsatish tashkilotlari haqida ma'lumotlar joylashtirilishi natijasida iste'molchilar ularning xizmatlaridan onlayn foydalanish imkoniyati yaratilganligi va ular o'rtasidagi raqobatning rivojlanishiga erishilgan;

Qoraqalpog'iston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha SWOT-tahlil amalga oshirilgan hamda hududda soha rivoji uchun aniq maqsadlar belgilab olingan;

amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida Raqamli iqtisodiyot va Turizm bakalavr yo'nalishlaridagi talabalar magistrning o'quv-amaliyot jarayonlarida so'rovnomalar tuzish, tahliliy tadqiqotlar olib borishda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Tadqiqot natijalarining tahlili jarayonida O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari va muayyan me'yoriy hujjatlari, tegishli idora va tashkilotlarning hisobotlaridan foydalanilganligi, ishda qo'llanilgan yondoshuv va usullarning maqsadga muvofiqligi hamda ilmiy asoslanganligi, keltirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi amaliyotida joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Iqtisodiyotda axborot xizmatlarini ko'rsatishni samarali boshqarish, raqamli iqtisodiyotda axborot xizmatlari samaradorligini baholash, ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni raqamlashtirish va raqamli o'zgartirish, axborot xizmatlarini ko'rsatuvchi servis integratorlari tomonidan taqdim etiladigan raqamli platforma xizmatlaridan foydalanish va boshqaruv usullarini ishlab chiqishda, axborot xizmatlarini ko'rsatish sohasidagi iqtisodiy faoliyatni tashkil etishning istiqbolli shakllarini yaratish bo'yicha fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlarni olib borishda muallif tomonidan ishlab chiqilgan nazariy qoidalar va uslubiy jihatlardan foydalanish mumkin.

Mualliflik ishlanmalari axborot xizmatlarini ko'rsatish tarmoqlarini shakllantirish va boshqarish loyihalarida, "Aqlli shaharlar", "Aqlli tashkilotlar", "Aqlli obyektlar" loyihalarida, axborot xizmatlari sohasi tashkilotlarida raqamlashtirish jarayonlarni baholash ko'rsatkichlarini ishlab chiqish, shuningdek, mustaqil ilmiy tadqiqotlar olib borish, oliy ta'lim muassasalarida "Raqamli iqtisodiyot", "Iqtisodiyotda axborot tizimlari", "Turizmda elektron xizmatlar", "AT menejment", "AKT sohasi iqtisodiyoti" kabi fanlarning o'quv dasturini ishlab chiqish, uning amaliy bazasini mustahkamlash mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida axborot xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha olingan ilmiy xulosalar asosida:

hududlarni raqamli rivojlantirish darajasini reyting baholash axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, internet va mobil aloqa, ta'lim va kadrlar, dasturiy mahsulot, raqamli iqtisodiyotga oid ma'lumotlar orqali shakllantiriluvchi turli indekslardan foydalanish taklifi O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Qoraqalpog'iston Respublikasi hududiy boshqarmasi ish faoliyatida foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi hududiy boshqarmasining 2022-yil 20-yanvardagi №13-21-29-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida "O'zbekistonda hududlarni raqamli rivojlanish darajasini reytingli baholash Nizom"ida hududlarni raqamli rivojlanish darajasini baholash indeksi ko'rsatkichlarida taklif etilgan barcha parametrlar inobatga olinganligi sababli hududlarning raqamli rivojlanish indekslarining aniqroq hisoblanishiga erishilgan;

hududlarni raqamli rivojlantirish darajasini reyting baholashda shaharlar va qishloqlar orasidagi raqamli rivojlanishning tafovut darajasi ko'rsatkichidan foydalanish asosida qishloq joylari va olis hududlarda raqamli axborot xizmatlarini kengaytirishni rag'batlantirish taklifi Qoraqalpog'iston Respublikasi Statistika boshqarmasi ish faoliyatida amaliyotga joriy qilingan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Statistika qo'mitasining 2021-yil 8-sentyabrdagi №01/2-11-09-993-son ma'lumotnomasi). Buning natijasida 1,2 mlrd. so'm iqtisodiy samara olinib, hududlarni raqamli rivojlanish darajasini reytingli baholash tizimini takomillashishga erishilgan;

turistlar uchun mahalliy hududdagi turistik, biznes va infratuzilma obyektlari bo'yicha zarur ma'lumotlarni onlayn rejimda taqdim etishga yo'naltirilgan "Qasimda" elektron platformasi asosida raqamli xizmat ko'rsatishni takomillashtirish taklifi Qoraqalpog'iston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligining 2022-yil 12-dekabrda №02-14/04-2274-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi aholiga axborot xizmatlarini ko'rsatish va kompyuter dasturlarini ishlab chiqish maqsadida "Qasimda" MChJ korxonasi ochish, yangi ishlab chiqilgan platforma orqali turistlarga mintaqadagi turistik obyektlar va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar, shu jumladan, banklar, davlat idoralari, universitetlar, maktablar, savdo do'konlari va boshqalar to'g'risida xaritalashtirilgan ma'lumotlar taqdim etish imkonini yaratgan;

Qoraqalpog'iston Respublikasida turistik xizmatlar sohasi rivojlanishining ko'p omilli ekonometrik modeli asosida 2026-yilga mo'ljallangan turistik xizmatlar hajmining prognoz ko'rsatkichlaridan Qoraqalpog'iston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi tomonidan istiqbol dasturlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligining 2022-yil 12-dekabrda №02-14/04-2274-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi Qoraqalpog'iston Respublikasida turizmni rivojlantirishga ta'sir qiladigan omillarni tahlil qilish hamda 2026-yil yakuniga kelib turistik xizmatlar hajmini 300,0 mlrd. so'mga qadar yetkazish imkonini yaratgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish, shu jumladan, OAKning doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsifi etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 139 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi asoslangan, maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi keltirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotning "Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish va tashkil etishning nazariy asoslari" deb nomlangan birinchi bobida raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida axborot xizmatlar turlarini rivojlanishining obyektiv zarurligi hamda uning ahamiyati, mintaqada xizmatlar turlarini rivojlantirishning ilg'or xorijiy tajribalari, pandemiya sharoitida axborot xizmatlar bozorini rivojlantirish, zamonaviy marketing tizimlarining iqtisodiy-ijtimoiy asoslari tadqiq qilingan.

Raqamli texnologiyalar aholining kundalik hayotini tubdan o'zgartirdi, uni soddalashtirdi, ishlab chiqarish munosabatlari va ishlab chiqarish kuchlarini o'zgartirdi, mamlakatlarning ma'muriy-hududiy tuzilishini va iqtisodiyot infratuzilmasini yaxshilaydi, aloqa va kommunikatsiya, hisoblash kuchi, axborot tizimlari va xizmatlariga yangi talablarni paydo qilmoqda. Axborot an'anaviy ishlab chiqarish omillaridan (ishchi kuchi, yer, kapital) asta-sekin siljish va foydalanish xususiyatini o'zgartirib, ishlab chiqarishning eng muhim omiliga aylanadi (1-jadval).

1-jadval

Raqamli iqtisodiyotning asosiy afzalliklari⁴

Ilg'or texnologiyalarni joriy etish ta'siri ostida mehnat unumdorligini oshirish;	Ishlab chiqarish hamda boshqarish jarayonlarini to'liq modernizatsiya qilish;
Axborotdan foydalanish darajasi oshishi natijasida tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish;	Yangi ish o'rinlarining tashkil etilishini tezlashtirish;
Tovarlarni iste'mol qilishga kirish uchun qo'shimcha tarmoq imkoniyatlarini yaratish;	Byurokratiya darajasini pasaytirish;
Ma'muriy resurslarning shaffofligini oshirish.	Aholi hayot darajasini yaxshilash.

⁴ Цифровая экономика: глобальные тренды и практика российского бизнеса. Доклад Национального исследовательского университета «Высшая школа экономики». [Электронный ресурс]. URL: https://imi.hse.ru/pr2017_1.

Hozirgi vaqtda raqamli iqtisodiyot zamonaviy jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hodisasidir. Uning qarama-qarshilik tabiati bevosita mamlakatlarni, bir tomondan, ijobiy iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirlarni boshqarish mexanizmlarini izlashga, ikkinchidan, umumiy raqamlashtirishdan kelib chiqadigan tahdidlarni zararsizlantirishga majbur qiladi. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishni davlat tomonidan tartibga solish bo'yicha xorijiy mamlakatlarning (AQSh, Yevropa Ittifoqi, Xitoy, Koreya, Yaponiya, Rossiya) tajribasini o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Yevropa Komissiyasining tadqiqotiga ko'ra, samarali ishlaydigan raqamli bozor bevosita iqtisodiyotni rivojlantirishga yaxshi hissa qo'shishi mumkin. Yevropa Ittifoqi (EI) misolida raqamlashtirish yiliga 415 milliard yevro miqdorida iqtisodiy vaziyatning o'sishiga hissa qo'shmoqda va yuz minglab yangi ish o'rinlarini yaratmoqda. Masalan, Buyuk Britaniyaning raqamli iqtisodiyotining o'sish sur'ati 5,4%ga teng bo'lgan, bu shu davrdagi YalMning 2%ga o'sish sur'atidan ham yuqori, Xitoyda raqamli iqtisodiyotining o'sish sur'ati 16,6%ga teng bo'lgan bo'lsa, mamlakat YalMni o'sish sur'atlari 6,6%ga teng bo'lgan⁵.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlanishini tahliliga nazar solsak, ushbu ko'rsatkichni yillar mobaynida keskin o'sish darajasiga ega bo'layotganligini ko'rishimiz mumkin. Rivojlangan 20 ta davlatlarda raqamli iqtisodiyotni o'sish darajasining tahlili (2-jadval).

2-jadval

Rivojlangan 20 ta davlatlarda raqamli iqtisodiyotni o'sish darajasining tahlili⁶

№	Davlatlar nomi	2010	2016	2021
1	Buyuk Britaniya	8,3	12,4	11
2	Janubiy Korea	7,3	8	12
3	Xitoy	5,5	6,9	9,7
4	Yevropa Ittifoqi	3,8	5,7	6,1
5	Hindiston	4,1	5,6	5
6	Yaponiya	4,7	5,6	6,1
7	AQSH	4,7	5,4	6,4
8	Meksika	2,5	4,2	4,4
9	Germaniya	3	4	5,1
10	Saudiya Arabistoni	2,2	3,8	4,2
11	Avstraliya	3,3	3,7	4,1
12	Kanada	3	3,6	4,0
13	Italiya	2,1	3,5	4,0
14	Fransiya	2,9	3,4	3,9
15	Argentina	2	3,3	3,5
16	Rossiya	1,9	2,8	3,2
17	JAR	1,9	2,5	2,8
18	Braziliya	2,2	2,4	2,7
19	Turkiya	1,7	2,3	2,6
20	Indoneziya	1,3	1,5	2,4

⁵ Autor D.H. Why Are There Still So Many Jobs? The History and Future of Workplace Automation // Journal of Economic Perspectives. 2015. T. 29(3). C. 3–30.

⁶ Muallif tomonidan Boston Consulting Group <https://www.bcg.com> va Jahon Banki www.worldbank.org ma'lumotlaridan foydalanilgan.

2-jadvalda keltirilgan rivojlangan 20 ta davlatda raqamli iqtisodiyotning o'sish darajasi tahliliga ko'ra barcha davlatlarda raqamli iqtisodiyotni o'sish darajasi ijobiy tendensiyaga ega bo'lgan. Bu esa raqamli iqtisodiyotni mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni va ahamiyatining ortib borayotganligidan dalolat beradi.

Raqamli iqtisodiyot ko'plab ishtirokchilari mavjud bo'lgan va AKT xizmatlarining yuqori darajadagi kirib borgan bozorlarda samarali ishlaydi. Avvalo, bu Internetga bog'liq bo'lgan tarmoqlarga (transport, savdo, logistika va boshqalar) taalluqlidir, bunda elektron segment ulushi YaIMning 10 foizini, bandlikning 4 foizidan ortig'ini tashkil etadi va bu ko'rsatkichlar aniq o'sishga ega trend hisoblanadi⁷.

Dissertatsiyada keltirilgan fikrlar va ta'riflarni chuqur o'rgangan holda hamda boshqa manbalarni tahlil qilgan mualliflik yondashuv ishlab chiqilgan: "Axborot xizmatlari - bu foydalanuvchilarni axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirishga qaratilgan jarayonning pirovard yakuniy natijasidir". Ushbu jarayonda axborotni foydalanuvchi elektron yoki qog'oz shaklida olishi, o'qishi yoki tahlil qilishi mumkin bo'ladi. Ko'pincha axborot xizmati kompyuterlar yordamida olingan xizmat sifatida qabul qilinadi, aslida bu tushuncha ancha kengroq hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi natijasida turli axborot xizmatlariga bo'lgan talab ortib bormoqda.

Dissertatsiyaning "Raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida axborot xizmatlarini rivojlantirishning hozirgi holati" deb nomlangan ikkinchi bobida axborot xizmatlarini rivojlantirishning xorijiy tajribalari, tendensiyasi va dinamikasi, shuningdek, mintaqada turizmni rivojlantirishda AKT xizmatlarini ko'rsatish jarayoni, rivojlanish tendensiyasi tahlil qilingan.

So'nggi yillarda AQSh, Xitoy, Janubiy Koreya, Yaponiya, Rossiya va Germaniya kabi rivojlangan davlatlarda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan bir qator hukumat strategiyalari ishlab chiqilgan. Jumladan, ko'pgina sanoat kooperatsiyasi dasturlari, Germaniyada - "Industriya 4.0" strategiyasi, Fransiya - "Fransiyaning yangi sanoat" rejasi, Avstriyada - Industriya 4.0, Xitoyda - "Made in China 2025", Yaponiyada - "Yangi robototexnika strategiyasi", Janubiy Koreyada - "IT integratsiyasi va rivojlanish strategiyasi", Rossiyada "Rossiya Federatsiyasining raqamli iqtisodiyoti", "Rossiya Federatsiyasi hududlarini raqamlashtirishning milliy reytingi" va boshqalar.

So'nggi o'n yillikda jahon iqtisodiyoti dunyoning uch davrali konfiguratsiyasini shakllantirish jarayonini yakunlamoqda, bu mamlakatlar "uchligi" deb ataladi, unda AQSh - G'arb - Sharq asosiy ishtirokchilar hisoblanadi. Bu mamlakatlarning yangi tipdagi iqtisodiyotini shakllantirish siyosati tajribasi bizni alohida qiziqtiradi. An'anaga ko'ra, Amerika Qo'shma Shtatlari IT sohasida yetakchi bo'lib, hozirda iqtisodiyotni raqamlashtirishni ilgari surmoqda. AQSh hukumati xususiy biznes va ilmiy doiralar bilan birgalikda maxsus texnologiya tashabbuslarini boshlagan. Masalan, 2009-yildagi "Bulutli hisoblash sohasidagi" Federal tashabbus yoki, Prezident B.Obamaning 2011-yilda ilgari surgan

⁷ Панышин Б. Цифровая экономика: особенности и тенденции развития // Наука и инновации. 2016. № 3 (157). С. 17–20.

ixtisoslashgan federal vazirliklar va AQShning eng yirik texnologiya kompaniyalarini birlashtirgan, ilg'or sanoat ishlab chiqarish markazlarining yagona tarmog'ini yaratish tashabbusi (AMP – Advanced Manufacturing Partnership)ni keltirishimiz mumkin.

AQShda milliy raqamlashtirish jarayonlarida xususiy biznes tashabbuslari (GE, AT&T, IBM, Intel i Cisco) hal qiluvchi rol o'ynamoqda. Shunday qilib, 2014-yilda maxsus Sanoat Internet Konsorsiumi (Industrial Internet Consortium (IIC) tuzildi, uning maqsadi “o'zaro bog'langan mashinalar, qurilmalar, shuningdek, intellektual tahlillarni ishlab chiqishni tezlashtirish, sanoatda joriy etish va keng tarqatishdan iborat edi, ya'ni sanoat internetini rivojlantirish”. AQSh siyosati raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga, unda ishtirok etayotgan tarmoqlar va ishlab chiqarish sohasining ulushini ko'paytirishga, AT-sanoat bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan⁸.

Yevropa Ittifoqida (EI) AQShdan farqli o'laroq, Yevropa mamlakatlari va sanoat tarmoqlari iqtisodiyotining raqamli transformatsiyasini tezlashtirishga qaratilgan 30 dan ortiq davlat milliy va mintaqaviy dastur hamda strategiyalari mavjud (3-jadval).

3-jadval

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarining raqamli iqtisodiyotini rivojlantirish milliy dasturlari va strategiyalari⁹

Davlatning nomi	EI mamlakatlarining raqamli iqtisodiyotini rivojlantirish milliy dasturlari va strategiyalari
Avstriya	Industrie 4.0 Oesterreich
Buyuk Britaniya	Digital Strategy 2017
Germaniya	Industrie 4.0
Fransiya	Alliance pour l'Industrie du Futur
Italiya	Industria 4.0
Belgiya	Made different – Factories of the future
Chexiya	Průmysl 4.0
Daniya	Manufacturing Academy of Denmark (MADE)
Ispaniya	Industria Conectada 4.0
Vengriya	IPAR4.0 National Technology Initiative
Shvetsiya	Smart Industry
Portugaliya	Indústria 4.0
Gollandiya	Smart Industry
Polsha	Initiative and Platform Industry 4.0
Litva	Pramonė 4.0
Lyuksemburg	Digital For Industry Luxembourg

2017-yilda Yevropa Ittifoqi Komissiyasi yagona ma'lumot almashish platformasini - Yevropa Ittifoqining yagona raqamli bozorini (EU Single digital

⁸ US Department of Commerce. https://www.ntia.doc.gov/files/ntia/publications/alan_davidson_digital_economy_agenda_deba_presentation_051616.pdf

⁹ Muallif tomonidan Yevropa Ittifoqi <https://ec.europa.eu/digital-single-market/en/cordination-european-national-regional-initiatives> ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

market) ishga tushirdi, bu platforma ishtirokchi mamlakatlarning milliy tashabbuslarini raqamlashtirishga qaratilgan yagona platformada birlashtirdi. Ushbu platforma milliy raqamlashtirish loyihalarini to'ldiradi, investitsiya loyihalarini birgalikda amalga oshirishni boshlaydi, ularga moliyaviy ko'mak beradi, tajriba almashish uchun maydon bo'lib xizmat qiladi, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash uchun sharoit yaratadi.

Sharqiy mintaqani raqamli iqtisodiyotning uchta giganti - Xitoy, Janubiy Koreya va Yaponiya ifodalaydi. Bugungi kunda Xitoy raqamli texnologiyalarga asoslangan yangi turdagi iqtisodiyotning paydo bo'lishida yetakchilardan biri bo'lib, global elektron tranzaksiyalar qiymatining 40% dan ortig'ini tashkil etuvchi ATlar uchun eng yirik bozor hisoblanadi. Xitoyning muvaffaqiyatli raqamli rivojlanishi uchta asosiy omil bilan bog'liq: katta ichki bozor, yuqori raqobat va tez rivojlanayotgan raqamli sektorni davlat tomonidan har tomonlama qo'llab-quvvatlash¹⁰. 2018-yilda Xitoy "Made in China 2025" dasturini ma'qulladi. Xitoyliklarning rejasiga ko'ra ushbu dastur Xitoyni keyingi yetti yil ichida ilg'or texnologiyalar bozorida yetakchisiga aylanishini ta'minlaydi. Janubiy Koreya, o'z navbatida, mamlakatni 2018-yildan 2022-yilgacha rivojlantirish strategiyasida platforma iqtisodiyotining rivojlanishiga tayanadi. Bu raqamli texnologiyalar va global raqamli platformalarga asoslangan iqtisodiyotning yangi turi hisoblandi.

Pandemiya boshlanganda, tahlilchilar global AT bozorining 8% gacha pasayishini bashorat qilishdi. Vaqt o'tishi bilan prognozlar yanada optimistik bo'lib qoldi. Natijada, 2020-yil oxiriga kelib, jahon AT-bozori atigi 2,2 foizga qisqargan. Kelgusi yillarda u to'liq tiklanadi: 2021-yilda 8,4% va 2022-yilda 5,5% ga o'sishi kutilmoqda.

Industry 1.0 Sanoat inqilobi boshlanadi. Bug' va suvni kiritish bilan ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash.

Industry 2.0 Elektr energiyasidan foydalangan holda ommaviy ishlab chiqarish uchun yig'ish liniyalari.

Industry 3.0 Elektronika, dasturlashtiriladigan mantiqiy kontrollerlar (PLC), AT tizimlari va robototexnika yordamida avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish.

Industry 4.0 Aqlli zavod. Mashinani o'rganish va katta ma'lumotlarni taqib qilsidan foydalangan holda kibernetika tizimlari haqida avtonom qaror qabul qilish. Narsalar Internet va bulutli texnologiyalar orqali moslik.

1-rasm. Sanoat inqiloblarining asosiy bosqichlari

1-rasmga asosan, birinchi sanoat inqilobi bu, bug' dvigateli va mashinasozlik bilan bog'liq bo'lib, ular qo'l mehnatini mashinalar bilan birlashtirgan. Ikkinchi sanoat inqilobi, ichki yonish dvigateli, elektr energiyasi, G.Fordning konveyer tasmasi va ommaviy bozori bilan insoniyatni aloqa, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot yo'lida harakatlantirdi. Yigirmanchi asr o'rtalarida uchinchi sanoat inqilobi fan va ishlab chiqarishni birlashtirdi, atom, elektronika, sanoat robotlari va axborot

¹⁰ Liu, S. Information technology (IT) services spending forecast worldwide from 2008 to 2021 / S. Liu // Statista - Mode of access: <https://www.statista.com/statistics/203291/global-it-services-spending-forecast/>.

texnologiyalarini ishlab chiqarishga joriy etdi, uni avtomatlashtirdi. To'rtinchi sanoat inqilobi avvalgi barcha sanoat inqiloblarining yutuqlariga asoslanib, insoniyatni yuqori darajaga ko'taradi. Dastlabki uchta inqilob paytida og'ir jismoniy mehnat asta-sekin mashinalar bilan almashtirildi. Bugungi kunda jismoniy qo'l mehnati o'rniga sun'iy intellektga ega bo'lgan robotlar almashtirilmoqda. 4-inqilobning boshida AQSh, Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya va Yevropa Ittifoqining yetakchi davlatlari bo'lib, ular uning rahbariga aylandi. To'rtinchi sanoat inqilobi mahsulotlarning butun hayotiy sikli davomida qiymat zanjirini tashkil etish va boshqarishning yangi bosqichi sifatida qaraladi.

Raqamli iqtisodiyot bu raqamli texnologiyalarga yo'naltirilgan bozorlarni tavsiflash uchun ishlatiladigan so'yabondir. Ular odatda internet va elektron tijorat orqali axborot xizmatlarini sotish bilan bog'liq. Raqamli iqtisodiyot juda muhim o'sishni ta'minlovchi hayotiy sohadir. Raqamli iqtisodiyotning ta'siri iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga axborot xizmatlari orqali aholi turmush tarziga va xo'jalik yurituvchi tashkilotlar faoliyatiga ta'sir qiladi. Ayniqsa, mobil qurilmalarning rivojlanishi jamiyatda axborot xizmatlarining kengaytirishga olib keldi.

4-jadval

Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida axborot xizmatlari ko'rsatkichlari tahlili¹¹

Ko'rsatkich nomi	O'lchov birligi	2015	2016	2017	2018	2019	2020
Veb saytga ega tashkilotlar ulushi	%	51	54	59	61	79	86
Onlayn xizmatlarga ega tashkilotlar ulushi	%	50	50	58	61	78	81
Aholining texnik vositalar bilan ta'minganlik darajasi (ShK, planshet, noutbuk, smartfon)	%	55	54	61	62	76	80
Wi-Fi zonalari qamrovi	%	8	11	14	25	31	43
Internetdan foydalanuvchilar soni	Kishi	16 581	20 320	22 538	27 520	66 069	72 521
Internetda onlayn faollik	Kishi	15	19	24	33	51	65
AKT bo'yicha dars beruvchi o'qituvchilarni qamrovi	% ^o	49	55	59	63	76	84
Aholini AKT savodxonlik darajasi	%	48	51	52	56	71	78
AKT bo'yicha oliy ta'lim bitiruvchilari soni	Kishi	1 418	1 629	1 828	2 024	2 220	2 518
Shu jumladan, ayollar	Kishi	366	411	481	519	594	683
IPTV xizmatlaridan foydalanuvchilar soni	Kishi	499	513	591	664	793	1 180

¹¹ Muallif tomonidan Davlat statistika qo'mitasi www.stat.uz ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

4-jadvalda keltirilgan Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida axborot xizmatlari ko‘rsatkichlari tahliliga ko‘ra barcha yo‘nalishlarda ijobiy o‘zgarish ro‘y bergan.

Ammo raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida axborot xizmatlarni ko‘rsatish uchun yetarli emas, jumladan, 2020-yil yakunlari bo‘yicha aholini texnik vositalar bilan ta‘minganlik darajasi – 80%, Wi-Fi zonalari qamrovi – 43%, AKT bo‘yicha dars beruvchi o‘qituvchilarni qamrovi – 84% tashkil etgan.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida axborot xizmatlari ko‘rsatkichlarini oshirib borish hamda AKT bilan ta‘minlanganlik darajasini oshirish asosida ko‘zlangan maqsadlarga erishish mumkin bo‘ladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida axborot xizmatlari ko‘rsatishni ta‘minlaydigan yana bir ko‘rsatkichlar guruhi bu Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha mobil aloqa tarmog‘ini rivojlanish ko‘rsatkichlari hisoblanadi. Rivojlangan davlatlarda axborot xizmatlarini ko‘rsatishda mobil aloqaning o‘mi katta hisoblanadi. Chunki ko‘plab axborot xizmatlari mobil ilovalar orqali ham iste‘molchilarga taqdim etiladi.

Tadqiqotimiz davomida Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha mobil aloqa tarmog‘ini rivojlanish ko‘rsatkichlari o‘rganildi (5-jadval).

5-jadval

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha mobil aloqa tarmog‘ini rivojlanish ko‘rsatkichlari tahlili¹²

Ko‘rsatkich nomi	O‘lchov birligi	2015	2016	2017	2018	2019	2020
Mobil aloqa qamrovi	%	48,9	61	73,1	84,5	97,4	98,1
Mobil Internetdan foydalanuvchilar soni	Kishi	510 500	579 000	748 400	834 000	1 020 500	1 100 420
Mobil aloqaning keng polosali qamrovi	%	36,6	40,3	49,5	59,3	74,5	86,1
2G qamrovi	%	51,3	55,7	62,1	76,5	97,2	98,2
3G qamrovi	%	19,4	21,5	23,5	29,6	36,5	85,2
4G qamrovi	%	6,8	7,5	8,3	10,1	34,2	72,8
5G ga tayyorgarlik	%	0	0	0	0	0	0,1
Mobil aloqadan foydalanuvchilar soni	Kishi	733 600	842 500	1 019 400	1 112 300	1 225 400	1 349 700
Mobil aloqa kompaniyalari kesimida							
Uzmobile	Kishi	112 900	143 800	162 200	191 300	203 400	299 000
Beeline	Kishi	285 300	304 500	382 100	414 600	459 800	461 100
Ucell	Kishi	254 900	296 600	368 900	393 600	424 500	432 000
Mobiuz	Kishi	80 500	97 600	106 200	112 800	132 500	149 300
Humans						5 200	8 300

¹² Muallif tomonidan Davlat statistika qo‘mitasi www.stat.uz ma‘lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

Turizmda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) muhim o‘rin tutadi. Turizm industriyasiga AKT integratsiyasi turizm korxonasi muvaffaqiyatining muhim shartidir. AKT yordamida istalgan vaqtda va istalgan joyda sayyohlik mahsulotlari haqidagi ma’lumotlarga kirishni osonlashtiradi. Sayyohlik kompaniyalari, shuningdek, mobil kompyuterlar, veb-texnologiyalar va hokozalar paydo bo‘lganidan keyin butun dunyo bo‘ylab maqsadli mijozlarga bir marta bosish orqali erishishlari mumkin. Strategik maqsad – AKTni turizm bilan integratsiya qilish, bu kirish, ma’lumotlarning ko‘rinishi, mahsulot xilma-xilligi va qoniqish darajasini oshiradi.

6-jadval

Qoraqalpog‘iston Respublikasida jami va turistik xizmatlar¹³

Yillar	Turistik xizmatlar (mlrd. so‘m)	Tashrif buyuruvchi turistlar soni (kishi)	Turistik tashkilotlar soni (dona)	Mehmonxonalar soni (dona)	Axborot xizmat turlari (dona)	Turistik obyektlar soni (dona)	Turizm sohasida ishlovchi kadrlar soni (kishi)
2006	3,0	3200	10	2	0	30	15
2007	3,5	3900	13	3	0	36	21
2008	4,1	4500	19	5	0	44	26
2009	4,2	4700	26	7	0	60	35
2010	4,9	5000	30	8	0	64	40
2011	5,0	5300	33	8	0	79	43
2012	5,0	5700	36	8	0	86	45
2013	6,0	6300	39	9	0	89	47
2014	7,0	7800	46	10	0	93	50
2015	10,0	10000	56	11	0	98	55
2016	12,0	25600	62	18	0	112	72
2017	13,0	28900	68	29	0	136	120
2018	291,8	429000	75	36	2	159	142
2019	300,0	651400	83	48	2	297	200
2020	27,0	43000	95	63	2	306	260
2021	219,5	308000	110	84	3	313	340

Qoraqalpog‘iston ichki va xalqaro sayyohlarga haqiqiy, noma’lum va gavjum sayohat yo‘nalishlarini taklif qilishi mumkin. Orol dengiziga ekstremal ekskursiyalardan boshlab, Nukusda I.Savitskiy nomidagi Qoraqalpog‘iston davlat san’at muzeyiga tashrif buyurish – Qoraqalpog‘istonning boy merosi, O‘zbekistonning boshqa hududlaridan farq qiluvchi o‘ziga xos xususiyatlarga ega madaniyat va an’analarini o‘z ichiga oladi. Aynan shuning uchun ham Qoraqalpog‘istonda barqaror turizmni rivojlantirishga hissa qo‘shish uchun hududdagi turistik takliflarning barcha turlarini o‘rganish, infratuzilma va xizmatlarni yaxshilash zarur¹⁴.

¹³ Mazkur jadval Qoraqalpog‘iston Respublikasi Turizmni rivojlantirish va madaniy boyliklarni asrash vazirligi ma’lumotlari asosida ishlab chiqildi.

¹⁴ www.undp.org онлайн-совещание «Туристический потенциал Каракалпакстана: новые возможности и вызовы», Ташкент-Нукус 2021 год 16-июня.

6-jadvalda 2006-2021-yillar mobaynida Qoraqalpog'iston Respublikasida turizm sohasida ko'rsatilgan xizmatlar tahlil qilingan. Unda 2006-yilda ko'rsatilgan turistik xizmatlar hajmi 3 mlrd.so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2021-yilga kelib 219, 5 mlrd.so'mga yetgan. Tashrif buyuruvchi turistlar soniga kelsak, 2006-yilda 3200 turist kelgan bo'lsa, 2021-yilga kelib 308000 turist kelgan. Tahlillarga ko'ra, 2016-yildan boshlab turistlar oqimi oshganligini kuzatishimiz mumkin. Bunga eng muhim sabablardan biri mamlakatimizda ichki va tashqi turizmni rivojlantirishga qaratilayotgan e'tibor natijasidir. Shuningdek, 2019-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasida kelgan turistlar soni 651400 ga oshishi sababini 2018-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasiga xorijiy fuqoralarining kirishi tartibini optimallashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi №2836-son qarorining qabul qilinishi bilan izohlash mumkin¹⁵.

Ushbu qaror doirasida elektron kirish vizalarining yagona ma'lumotlar bazasi, elektron kirish vizalarini rasmiylashtirish va berish tizimi «E-VISA.UZ» shakllantirildi, lekin 2020-yilda turistlarning tashrif buyurish dinamikasi COVID – 19 koronavirus pandemiyasi tufayli pasayganligini kuzatishimiz mumkin.

Bundan tashqari, respublikamizda va butun dunyoda AKT ning jadal ravishda ommalashishiga COVID – 19 pandemiyasi turtki bo'ldi. Qoraqalpog'iston Respublikasida ko'rsatilayotgan axborot xizmatlariga e'tibor qaratganimizda umumiy mintaqa bo'yicha keng rivojlanmaganligini yuqoridagi ko'rsatkichlarda ko'rishimiz mumkin. Masalan, 2018-yilda 2 ta axborot xizmati turlari ko'rsatilgan bo'lsa, 2021-yilga kelib faqatgina 3 taga ko'tarilgan. Bundan kelib chiqib, bugungi iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida raqamli transformatsiyalash bosqichiga o'tishi bilan turizmga AKT xizmatlarini yanada rivojlantirish va turistlar uchun qulayliklar yaratish zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-fevralida PF-5326-son «O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmonining qabul qilinishi bilan qator davlatlarning fuqarolariga viza rejimining bekor qilinishi tufayli hududdagi turistik firmalarga Orol dengiziga turistik marshrutlarni amalga oshirish uchun yo'l tanlamas avtomobillarni olib kirishlariga qulay sharoitlarning yaratilishi sohani rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratgani holda, chet el sayyohlarining dastlabki oqimining oshishiga xizmat qilmoqda. Demak, Qo'ng'iro't va Mo'ynoq tumanlari kabi boshqa hududlarda ham ekoturizmni tashkil etish, yondosh tarmoqlarning ham rivojlanishiga, yangi ish o'rinlarining yaratilishi, mahalliy aholi daromadlari va valyuta tushumining oshishiga, turfirmalar soni va mintaqaga turistlar oqimining oshishiga olib keladi deb hisoblaymiz.

Dissertatsiyaning «Raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida iqtisodiyot tarmoqlarida (turizm) axborot xizmatlarini rivojlantirish istiqbollari (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida)» deb nomlangan uchinchi bobida mintaqada axborot xizmatlarini rivojlantirish yo'nalishlari, istiqbollari bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

¹⁵ www.lex.uz

**Qoraqalpog'iston Respublikasi shahar va tumanlarining raqamli rivojlanish darajasini reytingli baholash natijalari
(2020-yil yakuntari bo'yicha)¹⁶**

T/r	Indikator	I. Telekommunikatsion infrastruktura	II. Raqamli iqtisodiyot	III. Ijtimoiy obyektlarda tarmoq texnologiyalaridan foydalanish	IV. Raqamli ta'lim	Raqamli rivojlanish darajasini reyting bahosi	%
	Ball	35	25	20	20	100	72%
1	Nukus shahri	25,7	14,7	15,4	16,4	72,2	59%
2	Nukus tumani	26,0	12,0	16,1	4,8	59,0	55%
3	Qangliko'l tumani	20,2	8,0	15,9	10,9	55,0	54%
4	Mo'ynoq tumani	21,2	5,8	16,8	10,1	53,9	50%
5	Kegeyli tumani	16,7	10,5	14,7	8,4	50,2	49%
6	Beruniy tumani	18,3	12,5	6,9	11,6	49,2	49%
7	Xo'jayli tumani	16,3	14,4	12,7	5,5	48,9	46%
